Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
PEDAGOGIKA

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZM FAOLIYATINING O'RNI

Kibriyoxon Islomjon qizi Marayimova*
Farg'ona davlat universiteti, p.f.b.f.d (PhD)
✉ marayimova.kibriyoxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm tushunchasi, turstik sayohatlar va ularni tashkil qilish, turizm va muzey xamkorligi, O'zbekistondagi tarixiy, madaniy va manaviy meros obyektlari, turizmni rivojlantirishda madaniy merosning axamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

turizm, muzey, turizm va muzey hamkorligi, tarixiy, madaniy va manaviy meros obyektlari.

DOI: 10.5281/zenodo.21743305

KIRISH

Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor bermoqda. Shu maqsadda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi tashkil qilindi va an'anaviy madaniy-tarixiy turizm barobarida, uning ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, davolash-sog'lomlashtirish, sport, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turlarini keng ommalashtirish, sohani kompleks rivojlantirishga doir milliy va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, bu boradagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti, xorijiy mamlakatlarning shu faoliyat bilan shug'ullanadigan tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, respublikamizning barcha hududida turizm industriyasi obyektlarini joylashtirish, tizim uchun yetuk kadrlarni tayyorlashni tubdan takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilib, ushbu yo'nalishda muayyan chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Turizm-inson faoliyatining maxsus sohasi bo'lib, uning doirasida dam olish, o'yin-kulgi, bilim olish, rivojlanish, sog'lomlashtirish va boshqa vazifalar hal etiladi. Turizm shaxsning ijtimoiylashuvi, ongining kengayishi, insonning ijtimoiy-psixologik holatiga ijobiy ta'siri, uning salomatligi va farovonligini oshirish, shuningdek ijtimoiy faolligini rivojlanishi bilan bog'liq muhim psixologik vazifani bajaradi. Turizm muammolar va muntazam vazifalar bilan o'ralgan insonning psixologik holatini tiklash imkonini beradi. Bu insonning ichki salohiyatini kashf qilish va uni ijobiy harakatlar uchun sozlash uchun ajoyib imkoniyatdir.

Turistik motivlarni bir necha turlari mavjud:

- Ta'tildagi jismoniy motivlar faol jismoniy faoliyat orqali charchash va zo'riqishni kamaytirishga qaratilishi;

- Madaniy motivlar-boshqa hududlar haqida ma'lumot olish, madaniyat, tarix, me'morchilik bilan tanishish istagi;

- Ijtimoiy motivlar yangi odamlar bilan uchrashish, do'stlarni ziyorat qilish istagini bildiradi;

- Faoliyatni o‘zgartirish motivlari insonning ish yoki kundalik faoliyat bilan bog‘liq muntazamlikdan chiqish istagini o‘z ichiga oladi;

- Ko‘ngil ochish motivi o‘yin-kulgiga intilish (raqs, sport, musiqa, sayr) bilan bog‘liq.

Shuni ta’kidlash kerakki, jismoniy va ruhiy stressdan tashqari, inson asab tizimi hissiy toliqishga duchor bo‘ladi. G‘azab, qo‘rquv yoki yomon kayfiyat kabi salbiy tajribalar uni kuch va aqliy muvozanatdan mahrum qilib, ishlashni kamaytiradi. Safardan olingan yangi his-tuyg‘ular va taassurotlar insonga hayotini yanada uyg‘un yo‘lga yo‘naltirishga yordam beradi. Agar turist dam olish bilan birga bir vaqtning o‘zida psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘lsa, ekskursiya oxirida u o‘zida ijobiy o‘zgarishlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dam olish, xususan turli sayohatlar va umuman turizm har qanday inson hayotining alohida qismini egallaydi va ular ish bilan taqqoslaganda ancha kam vaqt talab qilsa-da, lekin taassurotlar, his-tuyg‘ular jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pincha turizm kuchli iz qoldiradi, sizni g‘ayrioddiy, ba’zan esa o‘ta og‘ir vaziyatlarga duchor qiladi. Shuning uchun bu jihatni turizmning psixologik xususiyatlari, umuman, dam olish psixologiyasi va o‘z hayotini sayohatsiz tasavvur qila olmaydigan odamlarning psixologik turlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish mumkin.

Har kimning ishdan bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazish borasida o‘z fikr va g‘oyalari borligi bejiz emas. Bu qaror uchun esa har bir shaxsning shaxsiy psixologiyasi asos bo‘ladi. Bu yerda inson manfaatlari, uning maqsadlari, kutishlari va ehtiyojlari katta rol o‘ynaydi.

G‘arbda bo‘lajak mutaxassislarning turizm sohasidagi kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularning shaxsini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ishlarni amalga oshirishning muhimligi dolzarblik kasb etmoqda. Shunday qilib, ingliz, shveytsariya va amerika tizimlari haqida ma’lumotlar mavjud. Kornoul kollejida (ingliz turizm maktabi) ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardir: o‘quvchilarning muloqot, tashkiliy va ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bornmut universitetida (ingliz turizm maktabi) ta’lim modeli kelajakdagi mutaxassislarini o‘ziga ishonch, guruh a’zolari bilan ishlash qobiliyati; keng profilga ega bo‘lish kabi sifatlarning rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Lozanna turizm va mehmondo‘stlik maktabi (Shveytsariya) ochiqlik va faollik, diplomatiya va tadbirkorlik kabi asosiy fazilatlarini rivojlantirishga va turli ijtimoiy sharoitlarda o‘zini erkin his qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Jonson va Uells universiteti (Amerika turizm maktabi) halollik, sabr-toqat, umumiy ishbilarmonlik ko‘nikmalarini, tinglash va mijozga mazmunli maslahat berish qobiliyatini shakllantirish.

Turizm yoshlarni mehnatsevar va vatanparvar, rostgo‘ylik, sadoqat, o‘zaro ishonch va tabiatga mehr-muhabbat ruhiga tarbiyalashga katta yordam beradi. Shuningdek, turistik sayohatlar jarayonida o‘quvchilarda mardlik, jasurlik, chidamlilik, kuchlilik, keskin vaziyatlarda zarur qarorga kelish kabi ruhiy va jismoniy sifatlarni ham tarbiyalash imkoniyati juda keng. Avestoda “Har kim o‘zi yashayotgan joyni dunyoning eng go‘zal joyi deb bilmog‘i kerak” deb yozilgan. Shunday ekan dunyoning eng go‘zal joylaridan bo‘lgan O‘zbekistonning madaniy boyliklari, tabiati takrorlanmasdir. Turstik sayohatlar va ularni tashkil qilish, o‘tkazish bo‘yicha respublikamizda katta tajriba to‘plangan. Bugungi kunda bu tajribalarni yanada rivojlantirilmoqda.

Ayni chog‘da soha istiqbolidagi muhim jihat, bu — hududlardagi barcha madaniy-tarixiy meros obyektlari, tabiiy o‘lkashunoslik, milliy qo‘riqxona hududlarining yagona ma’lumotlar bazasini yaratish, turizm sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususiy sektorning ishtirokini yanada kengaytirish, soha uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, sayyohlikni mavsumiy emas, yil davomida daromad manbaiga aylantirishdan iborat ekanligiga alohida e’tibor qaratdi.

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-memoriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez suratlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda va madaniyat, tarix, anana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESKO ning “Butun dunyo merosi” ning maxsus ro‘yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va memoriy inshootlar o‘tmish zamonlarni o‘zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o‘ynaydi.

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta va eng qadimiy shaharlaridan biridir. 2009-yilda u o‘zining 2200 yilligini nishonladi. Toshkent tez suratlarda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy osmono‘par binolarning o‘zaro uyg‘unligida zamonaviy rivojlangan xalqaro megapolisga aylanmoqda.

Bugungi kunda turizmning rivojlanishida muzeylarning o‘rni beqiyos. Ularning har biri o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo‘lib, uning eksponatlari O‘zbekiston hududida o‘rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va sanatning rivojlanishini aks ettiradi.

Qadim davrlarda Samarqand “Islom memorchiligi marvaridi”, “Dunyo ko‘zgusi” kabi nomlar bilan tariflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo‘lgan Samarqand o‘zining 2750 yilligini nishonladi. Bugungi kunda Samarqandagi yodgorliklar go‘zal va ulkan. Bu shaharda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas memoriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo‘lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko‘targan.

Go‘ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvaridididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug‘bek qabrlari joylashgan. Registon maydoni, Go‘ri-Amir, Bibi-Honim, Shoxi-Zinda maqbaralari, Ulug‘bek rasadxonasi va shuningdek bir qancha yodgorliklar shaharga tashrif buyuruvchilarni o‘ziga maftun qilib kelmoqda. Shuningdek Ismoil Somoniy maqbarasi, ulkan qo‘rg‘on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko‘plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo‘q marvaridlaridan bo‘lib sayyohlarning eng sevimli joylaridan biridir.

Buyuk Ipak Yo‘li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xiva “Ochiq osmon ostidagi muzey” nomini olgan. Shahar markazidagi ko‘plab memoriy yodgorliklar joylashgan Ichan-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo‘lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo‘li o‘tganligi sababli Ichan-Qalaga dunyoning to‘rt tomoniga qaragan to‘rtta darvozalar qurilgan. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo‘lib ulardan eng mashxuri marosimlar o‘tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-xovli saroyidir.

Ko‘p qirrali O‘zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi. Qoraqolpog‘istonda joylashgan Qirq-Qiz, Ayoz-Qala, Janbus-Qala, Ishan-Qala maqbarasi, betakror Tuproq-qala va boshqa tarixiy-memoriy yodgorliklar ilmiy va madaniy qiziqishni uyg‘otadi, mahalliy va chet el sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

O‘zbekiston bo‘ylab sayohat mobaynida, sayyohlar nafaqat memoriy yodgorliklarni ko‘rishi va shuningdek xalq bayramlarini nishonlashda ham ishtirok etishlari mumkin. Har bir yo‘nalish sayyohlar mahalliy xalqni yashash tarzini ko‘rish, milliy taomlarni tatib ko‘rish va falklor shou dasturlarini ko‘rish uchun mahalliy xonadonlarga tashrifni o‘z ichiga oladi.

Ayniqsa turli tumanligi bilan o‘zbek milliy oshxonasi diqqatga sazovor. Taomlar, ajdodlarning boy tajribasiga asoslangan xolda, o‘zbek xalqining xayot tarzi va madaniyatini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotini rivojlanishida, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda turizm muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda rivojlantirilayotgan turizm bozori boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyingi o‘n yillikda har to‘rtta yangi ish joyidan bittasi turizm sektori tomonidan yaratilishini inobatga olsak, turizm O‘zbekistonda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratib ishsilik darajasini pasaytirishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu o‘z navbatida axolining yuqori daromad manbai hamdir. Ayniqsa qisqa muddatli sayohatlar, shahar turizmi, gastronomik turizm va ziyorat turizmini rivojlantirish o‘zbek turizmining asosi deyishimiz mumkin. Shuningdek, transportning ichki va tashqi turlarini hisobga olgan holda sayyohlik oqimini ko‘paytirish va diversifikatsiya qilish uchun yagona, xavfsiz va innovatsion transport logistikasini rivojlantirish lozim. Shu jumladan, O‘zbekiston xalqaro koridorlarini Yevropa, Janubi-sharqiy Osiyo mlakatlari hamda Yaqin Sharq bilan ham bog‘lash orqali turistlarning keng oqimini jalb qilish mumkin. Madaniy meros obyektlari, muzeylar, teatrlar, sanat galereyalari faoliyati samaradorligini sayyohlarni axborot - malumot bilan taminlashning samarali tizimini yaratish, aqlli turizm texnologiyalarini joriy etish, turniket tizimi va videokuzatuv tizimini o‘rnatish orqali oshirish lozim. Albatta tarixiy shahar bilan bir qatorda zamonaviy shaharlarning bunyod etilishi turistlarning qamrovini kengaytiradi. To‘rtinchidan, turistlar oqimining ko‘payishi

bilan turizm industryasi ham rivojlanib boradi va yangi turistik xizmatlar paydo bo‘ladi. Turistik xizmatlarning ko‘payishi turistlar talabini to‘laroq qondirib turizmdan keladigan daromadni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston islom olamida o‘z tarixi bilan yuqori mavqega ega. Musulmon sayyohlarning Imom Buxoriy at-Termiziy, Moturudiy ziyoratgohlariga tashrif buyurish uchun istaklari yuqori. Shuningdek, musulmon turistik bozori yildan yilga kengayib, talab ham ortib bormoqda. Musulmon mamlakatlari turistlarini jalb qilish va halol turizmni rivojlantirish orqali katta turistik oqimni yo‘lga qo‘yish mumkin. Shuning uchun ziyorat turizmi infrastrukturasini shakllantirish, ziyoratgohlar haqida malumotlar bazasini shakllantirish hamda ziyoratchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Насруллаева П.Н. МУЗЕЙНОЕ ДЕЛО В СИСТЕМЕ ТУРИЗМА. — Дагестанский государственный педагогический университет Кафедра «Социально-культурный сервис и туризм» г. Махачкала.

2. Квартальнов В.А. Туризм: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2000.-320с.

3. X.Tulenova, T.Xoldarov. TURIZM (Sayyohlik): Kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2013.-144 b.

4. M.R.Usmonov. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy hususiyatlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Unversiteti. 2004

5. Marayimova K.I. The importance of museums in the development of tourism. International conference: ”Contemporary approaches and intercultural communications in development of tourism on silk road”. 2021.-9 b. https://doi.org/10.47100/conferences.v1i4.872

6. Интернет сайтлари:

www.turizm.ru

www.Uzbekturism.uz

www. http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html